

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SHARAPOVA NIGORA AMONOVNA

**ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI MASOFAVIY
O'QITISH JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Sharapova Nigora Amonovna

Zamonaviy ta’lim muhitida talabalarni masofaviy o‘qitish jarayonida axborot kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi..... 3

Шарапова Нигора Амоновна

Методика развития информационно-коммуникативной компетентности студентов в современной образовательной среде в процессе дистанционного обучения..... 23

Sharapova Nigora Amonovna

Methodology of developing information and communicative competence of students in a modern educational environment in the process of distance learning..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.10.2021.T.101.03 RAQAMLI ILMY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SHARAPOVA NIGORA AMONOVNA

**ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARNI MASOFAVIY
O'QITISH JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikai Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Ped2907 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bstu.uz) hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Yadgarov Nodir Djalolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ibragimov Ulug'bek Muradillovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2025 yil 23 avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy, Tel.: (998-65) 223-78-84, faks: 223-78-84; e-mail: info@bstu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15 uy, Tel.: (998-65) 223-78-84)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil « ____ » _____ dagi № ____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

X.Q.Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

R.X.Nurboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari nomzodi, professor

S.S.Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Seminar raisi, texnika fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. BMT Bosh Assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan "barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)" hamda "Yevropa oliy ta'lim makoni" (YHEA) kontsepsiyalari mazmunida "kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetentsiyalarga asoslangan ta'lim (competence-based learning) modelini joriy etish" belgilab berilgan. Bunda bo'lajak mutaxassislarining axborot-kommunikatsion kompetentligi va kreativligini rivojlantirish, ta'limning innovasion shakllari orqali o'qitishning integrativ - differentsial metodikalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta'limning innovasion rivojlanishning global vazifalaridan biri zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirishdir. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida innovasiyalarni tadbiq etish, masofaviy ta'lim tamoyillarini ilmiy asoslab berish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, masofaviy ta'lim mazmuniga mos didaktik imkoniyatlarini kengaytirish hamda takomillashtirilgan o'qitish metodikalarini joriy etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda "yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni ta'minlash"ga¹, shuningdek talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda ta'limning turli shakl, metod, vosita, texnologiya va strategiyalaridan foydalanish talab etiladi. Masofaviy ta'lim va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish jarayonlari ushbu ta'limning XXI asr chaqirig'iga javoban ta'limning globalizatsiyasi, axborotlashuvi, kompyuterizatsiya va raqamlashtirilishi bilan bog'liq holda yanada rivojlanishning dastlabki pallalarida turgan, joiz bo'lsa ta'limning yangi paradigmalarga yuz tutadigan ta'limga aylanishi ehtimolidan xoli emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonida "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" masalasiga alohida urg'u berilgan².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son, 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6079-son³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini

¹ O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son. 2020 yil, 23-sentyabr, O'RQ-637- son

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston–2030 strategiyasi" to'g'ridagi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-3775-sonli Farmon va Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda talabalarni komputer savodxonligi faoliyatiga yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslari va ta'limiy-tarbiyaviy jihatlari S.Beknazarova, Ya. Mamatova, S. Sulaymanova, S.S. Babadjonov, R.G. Isyanov, N.A. Muslimov, A.X. Maxmudovlar, ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari N.I. Taylaqov, U.Yu. Yuldashev, M.E. Mamarajabov, S.K. Tursunov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha A.A.Abduqodirov, U.SH.Begimqulov, F.M.Zakirova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

MDH davlatlarida axborot texnologiyalari fanini o'rganish jarayonida talabalarni axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish muammolari bo'yicha A.V. Шариков, Т.И. Мясникова, А.В. Фёдоров, А.А. Милютин, Э.Ю. Никитина, Г.Б. Онкович, О.А. Иманова, Е.Н.Волкова, Й.Н.Кулуткин, Л.М.Митина, В.А.Сластенин, В.А.Адольф, Э.Ф.Зеер, И.А.Зимняя, Н.В.Кузьмина, А.К.Маркова va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorijlik olimlardan R.Berk, T.Beyer, P.Dillenbourg, E.Cotler, A.T.Mohr, J.M.Pallo va boshqalar tomonidan ta'limga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligi strukturasi, masofaviy ta'lim jarayoniga kompetentli yondashuvlar masalalari atroflicha o'rganilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlarida elektron ta'lim va masofaviy ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan. Mavjud adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib, tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan, ammo talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining masofaviy ta'lim olishi uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va tatbiq etish imkoniyati mavjud bo'lsada, axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishdagi kamchiliklarni bartaraf etishga doir tavsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlarining "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini

raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida tashkil etish rejasi"ga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ilmiy va pedagogik tadqiqotlar asosida zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarining amaldagi holatini va zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish, shuningdek pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish hamda asoslash;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida ta'limni axborotlashtirishning innovatsion yo'nalishlari nuqtai nazaridan talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish asosida axborot-kommunikatsion texnologiyalariga oid kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va uning komponentlari mazmunini takomillashtirish;

zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning metodikasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

oliy ta'limni raqamlashtirish muhitida talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligi sifat ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini aniqlash asosida o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Buxoro davlat texnika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat texnika universitetining 575 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqot predmeti zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari, rivojlantirish bosqichlari, shakl, usul va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligi EdApp, OpenLearning, Blackboard, EasyWebinar, Course Craft platformalari orqali moslashuvchanlik, modullilik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi loyiha va case-study texnologiyalarini qo'llash asosida takomillashtirilgan;

zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalash, case technology, person-oriented, cloud ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali gipermediya, multimedia, gipermatn, ovozli video kabi shakl va vositalar

samaradorligini aniqlashtirishning o'quv-metodik ta'minot materiallari takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va masofaviy ta'lim muhitida talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini aniqlashga mo'ljallangan virtual ta'lim texnologiyalari va tashxislovchi pedagogik dasturiy vositalar yordamida produktiv, qisman-izlanishli, kreativ baholash mezonlari asosida statistik tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurtlari zamonaviy ta'lim muhiti (distance learning, virtual intellectual existence, educational management systems) va masofaviy o'qitish (EdApp, OpenLearning, Blackboard, EasyWebinar, CourseCraft) jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan, shu bilan birga masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanib talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion Loyiha (Projects), Case technology, Person-oriented, Cloud technology texnologiyalari orqali shakl va gipermediya, multimedia, gipermatn, ovoz, video kabi vositalar samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi "Dizayn va amaliy dasturlar" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va masofaviy ta'lim muhitida talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini aniqlashga mo'ljallangan virtual ta'lim texnologiyalari va tashxislovchi pedagogik dasturiy vositalar yordamida produktiv, qisman-izlanishli, kreativ baholash mezonlarini aniqlashga qaratilgan elektron ta'lim resurslari, masofaviy ta'lim saytlari, elektron portfolio va ta'lim portallarini ishlab chiqishga doir "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" nomli elektron darslik ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik asoslari mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuniga hamda mazkur muammo bo'yicha respublikamiz va xorijiy pedagog-tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy g'oyalari asoslanilganligi; tadqiqot metodlarining tadqiqot vazifalariga mos ravishda tatbiq etilganligi; ilgari surilgan ilmiy g'oyalarning o'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridagi ijobiy ko'rsatkichlari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishdagi ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlarning yoritib berilganligi, bo'lajak talabalarni tayyorlash jarayoni, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, uni tashkil etish yo'llari, shakl va metodlari, o'quv-biluv jarayonini tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish, mazmunini boyitish, o'quv-tarbiya jarayonining sifati va samadorligini ta'minlash prinsiplari va vositalari hamda rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalardan texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifati va samadorligini oshirishda hamda jamiyatga yuqori malakali kadrlar yetkazib berishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitishda EdApp, OpenLearning, Blackboard, EasyWebinar, CourseCraft platformalari orqali axborot-kommunikatsion kompetentligi moslashuvchanlik, modullilik tamoyillariga oid taklif va tavsiyalar "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. (O'ROTF va I vazirligining 2024 yil 7 maydagi 149-sonli buyrug'i, 804443-raqamli guvohnoma). Natijada texnika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi loyiha va case-study texnologiyalarini qo'llashning zamonaviy mexanizmlari "Dizayn va amaliy dasturlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'ROTF va I vazirligining 2023 yil 22 dekabrda 537-sonli buyrug'i, 888120-sonli guvohnoma). Natijada talabalarning fanni o'zlashtirish samadorligini oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalash, case technology, person-oriented, cloud ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali gipermediya, multimedia, gipermatn, ovoqli video kabi shakl va vositalar samadorligini aniqlashtirishning o'quv-metodik ta'minot materiallarini ta'lim jarayoniga joriy etishga oid taklif va tavsiyalardan "Markaziy Osiyoda "BigData Intellegent Analysis" bo'yicha o'quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish" mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat texnika universitetining 2024-yil 18-dekabrda 1-1-2-5156-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy o'quv yurtlari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 38 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 18 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va ilovalarlar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot mavzusining ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etilganligi asoslangan, natijalarning nashr etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tahlil qilinib, talabalarni masofaviy o'qitishdagi muammolar va ularning yechimlari aniqlashtirilgan. Masofali o'qitish zamonaviy ta'lim shakli bo'lib, o'qituvchi bilan olib boriladigan pedagogik munosabat jarayoni video-kommunikatsiya, elektron pochta va internet vositalari asosida olib boriladi. Masofali o'qitish o'quv jarayonidagi barcha qatnashuvchilarga (talaba, tyutor, uslubchi va administrator) mashg'ulotlarni olib borishda o'ziga ma'qul kelgan joy, vaqtni tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan egiluvchan tizim hisoblanadi.

Masofadan o'qitish – talabani mustaqil bilim olish tamoyiliga tayanuvchi ta'lim jarayonining yangi tuzilmasidir. Ta'lim muhiti shu bilan xarakterlanadiki, ta'lim oluvchilar ko'pincha yoki doimo fazo (yoki vaqt) jihatdan o'qituvchidan uzoqda bo'lishadi. Ayni vaqtda ular istagan paytda telekommunikatsiya vositalari yordamida muloqot qilish imkoniga ega bo'ladilar

Masofaviy ta'lim rivojlanishida quyidagi tendensiyalar ham muhim hisoblanadi:

1. Yangi axborot texnologiyalari yordamida kasbiy tayyorgarlik ma'lumotlarini beruvchi ta'lim muassasalari sonining ortib borishi.

2. Ta'lim muassasalari tashkiliy tizimlarining o'zaro muvofiqlashtirilishi.

Masofaviy ta'lim sifatlarini beshta asosiy holat bilan tavsiflash mumkin:

- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro muloqot;
- o'qituvchining talabalar bilan bir-birlaridan ma'lum masofada ekanligi;
- o'qituvchi va talabalarning o'zaro ikki tomonlama muloqoti;
- masofaviy o'qitish uchun maxsus materiallarning mavjudligi;
- har ikki tomonning kompyuter va boshqa texnika va kommunikatsiya bilan ta'minlanganligi.

Tahlillar masofali o'qitishning bunday uslubiyotida talaba va o'qituvchilarning hamkorligi boshqa o'qitish shakllariga nisbatan samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi.


Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining sifati va darajasiga jiddiy talablar qo'yadi. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv-tarbiyaviy jarayon sezilarli darajada optimallashtiriladi. Shuningdek, ular asosiy ikki tamoyil, ya'ni integratsiyalashganlik va texnologiyalashganlikni joriy qilishni ta'minlaydi (1- rasmga qarang).

V.A.Лукьяненко, В.С.Фёдорова, Л.Д.Митевалар ta'limni axborotlashtirish faoliyatiga asoslangan yondashuv, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq holda ta'limni takomillashtirish muammolarini ko'rib chiqadi va ta'lim

jarayonining paradigmasini o'zgartirish shartlarini o'rganadi. Ushbu tadqiqotlar asosida o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur:

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ilmiy-pedagogik, o'quv-uslubiy va dasturiy-texnologik ishlanmalarni yaratish va ulardan optimal foydalanish.

2. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadlarini aniqlash, o'quv jarayonida ixtisoslashtirilgan dasturiy vositalardan foydalanishning uslubiy maqsadlarini aniqlash, o'quv materialining tuzilishi, mazmuni va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish.



1-Rasm. Masofaviy ta'limning rivojlanish strategiyalari.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

“Kommunikatsiya” so'zi lotincha “comunico” so'zidan olingan bo'lib, “umumiy qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman” degan ma'nolarni anglatadi. “Kommunikatsiya” so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan “kommunikabellik” – “muomala qilishga layoqati bor” ma'nosida, “kommunikabel” – “kirishimli, dilkash”, shuningdek, “kommunikativ” – ya'ni “kommunikatsiyaga oid” ma'nosini bildiradi.


Dissertatsiyaning “**Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning uslubiy asoslari, masofaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning yangi istiqbollari nazariy jihatdan asoslangan.

Yuqori sifatdagi va texnologik axborot-o'qitish muhitini yaratish, asosan, ta'lim

tizimining texnologik bazasini tubdan modernizatsiyalash, jamiyat talablariga javob beradigan ochiq ta'lim tizimiga o'tish imkoniyatini yaratadigan yetarlicha murakkab bo'lgan texnik masala sifatida ko'riladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish jarayoni kompyuter vositalarini qo'llash, kompyuterdan o'rganish obyekti sifatida foydalanish, pedagogik texnologiyalarni axborotlashtirish jarayonining eng yangi vosita va obyektlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi asosida tashkil etiladi hamda axborot texnologiyalari ta'lim mazmunini qayta shakllantirishga zamin yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga oid masofaviy elektron kursning (MEK) tarkibiy tuzilishi 2-rasmda keltirilgan.



2-Rasm. Talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga oid masofaviy elektron kursning (MEK) tarkibiy tuzilishi

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni muhim bo'lib, masofaviy elektron kurs tarkibida mustaqil ta'limning quyidagi turlari kiritilgan (3-rasmga qarang):

- *individual mustaqil ta'lim*: talaba egallagan bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalaridan amaliy faoliyatida foydalanib, individual mustaqil ta'lim oladi;


- *talaba*: egallagan bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari asosida mustaqil ijodiy shug'ullanadi, o'z amaliy faoliyatiga mos holda mustaqil ta'lim olish shakl, metod, vositalarini o'zi tanlaydi;

- *psixologik motivlar*: talaba o'z xohish-istagi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlaydi. Texnologik jarayon va obyektlarni o'z qobiliyatiga tayangan holda tanlaydi va ular bilan bog'liq masalalarga yechim topadi;

- o'z-o'zini nazorat qilish: talaba texnologik jarayonga oid o'zi bajargan mustaqil ishga tanqidiy qaraydi va xatolardan xulosalar chiqaradi. Mustaqil faoliyat samaradorligini oshirish uchun maqbul usullar qo'llaydi;

- yangilik yaratish: talaba o'z xulosalari asosida mustaqil ishlash usuliga muhim o'zgartirishlar kiritadi;

- natija: talaba o'zining intellektual qobiliyatiga mos holda mustaqil ish bajara oladigan, ijodiy tafakkurga ega, texnologik jarayon va texnik obyektlarni mustaqil tanlay oladigan va mustaqil ijodiy faoliyat olib boradigan yetuk mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.




3- Rasm. Mustaqil ta'lim olishning umumiy tuzilmasi

O'quv maqsadlarning ushbu olti asosiy kategoriyalarini talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda, mustaqil ta'lim jarayonidagi ko'rinishlarini ochib berish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini shakllantirishda mustaqil ta'lim olishning auditoriyada va auditoriyadan tashqari hamda masofaviy shakllar, mustaqil ta'lim olishning adekvat metodlari, o'quv maqsadiga ko'ra texnologik jarayonlarda va texnik obyektlarni qo'llashda, mustaqil ta'lim jarayonidagi ko'rinishlarda ilmiy asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida mavjud "LMS Moodle" ta'lim portallari barcha yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha elektron ta'lim resurslari bilan boyitilgan bo'lib, ushbu ta'lim portallaridagi faoliyat masofaviy o'qitish tizimi asosida amalga oshiriladi va o'zaro hamkorlik qilish va axborot resurslari almashinuvi va o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari (talabalar, professor-o'qituvchilar) bilan samarali muloqot qilish uchun ochiq ta'lim muhitini ta'minlaydi. Portal funksiyalari o'zlarining tajribalari va qiziqishlari asosida birgalikda ishlashni tashkil qilishni o'z ichiga oladi.



4-Rasm. Oliy ta'lim muassasalari masofaviy o'qitish jarayonida talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli

Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida biz talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarini asosladi, jumladan texnik oliy ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitishda elektron va masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Tadqiqotga oid nazariyalar va tushunchalar asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarini masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli ishlab chiqildi (4- rasm).

Modelning maqsadli tarkibiy qismi ta'limni masofaviy o'qitish sharoitida talabalarini axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablarni aks ettiruvchi maqsadlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalarida biz quyidagi tarkibiy qismlarni ko'rib chiqamiz: diqqat, axborot-kommunikatsion kompetensiya, kreativlik va o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati.

Talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyaning didaktik salohiyatini tushunishni, ularning imkoniyatlarini amalga oshirish natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni anglatadi. Talabalar axborot-kommunikatsion kompetensiyasi kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan amaliy foydalanishga qaratilgan. Talabalarning kreativligi elektron ta'lim resurslarini rivojlantirishni, elektron ta'lim texnologiyalari va masofaviy ta'limdan foydalanishni, veb-portfolioni loyihalashtirish va saqlashni nazarda tutadi.

O'z-o'zini tarbiyalash faoliyati ochiq masofaviy kurslarda o'qitish, forumlarda, internet konferensiyalarida, telekommunikatsiya loyihalari jarayonida professional muammolarni muhokama qilishda ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu komponent elektron ta'lim resurslari va masofaviy va aralash ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil etishga qiziqishni bildirishni ham o'z ichiga oladi:

- oliy ta'lim muassasalari masofaviy o'qitish jarayonida talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish modelining mazmunli tarkibiy qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishi mutaxassislik fanlari mazmuniga virtual metodik ishi doirasida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari predmetlarini kiritish;

- oliy ta'lim muassasasi talabalar va o'qituvchilari uchun elektron ta'lim va masofaviy ta'limdan foydalanish, ta'limni amalga oshirish bo'yicha ochiq masofaviy kurslar tashkil etish.

Metodik modelning texnologik tarkibiy qismi oliy ta'lim muassasalari masofaviy o'qitish jarayonida talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishni samarali amalga oshirishga imkon beradigan shakllar, usullar va vositalarni o'z ichiga oladi. Talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodik modelining tashkiliy tarkibiy qismi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- talabalar axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish oliy ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhitida joylashgan, ushbu muhitga kirish va ishlash uchun texnologik vositalar bilan ta'minlangan interaktiv masofaviy ta'lim platformalari asosida amalga oshiriladi;

- virtual metodik faoliyatda (internet-konferensiya, veb-seminar, masofaviy master-klass, masofaviy konsultatsiya, telekommunikatsiya loyihasi, olimpiada, musobaqa va boshqalar) ishtirok etish asosida talabalarning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish;

- talabalar, o'qituvchilarning elektron o'quv kurslarini ishlab chiqish va o'tkazishda, aralash ta'lim texnologiyalarini joriy etishda, tarmoq ta'lim tashabbuslarini, talabalarning o'quv va tadqiqot faoliyatini, barcha mumkin bo'lgan off-layn, on-layn aloqa vositalaridan foydalangan holda elektron o'quv resurslar kolleksiyasini tashkil etish;

- axborot ta'lim muhiti ta'lim mazmunini ishlab chiqish va ekspert baholash bo'yicha tadbirlarni tashkil etish.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish**" deb nomlanib, unda talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishga oid tajriba-sinov ishlari, talabalarni test sinovidan o'tkazish asosiy bosqichlarining matematik va statistik tahlillari keltirilgan.

1-jadval.

Talabalarni axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilimni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Baholashning tasniflanishi
1	Produktiv	axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha qisman tasavvurga ega hamda mavzu mazmunini to'liq tushunmagan; mustaqil dastur tuzganda xatoliklarga yo'l qo'yadi; berilgan topshiriqni o'qituvchi yordami bilan bajara oladi; nazariy ma'lumotlarni tushunadi, lekin o'z fikrini to'liq bayon eta olmaydi; o'qituvchi tushuntirgan namunaga o'xshash dasturni tuza oladi, mustaqil bajara olmaydi.
2	Qisman izlanishli	axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tasavvurga ega hamda tegishli tushuncha va amallarni biladi; dastur tuzishda xatosiz yozadi, natijani ham oladi lekin mantiqiy xatolikka yo'l qo'yadi; o'ziga yuklatilgan vazifani bajarishda kichik xatolikka yo'l qo'yib, o'qituvchi fikridan tezgina xatolikni tuzata oladi; o'z fikrini qisman bayon etadi.
3	Kreativ	axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha to'liq tasavvurga ega hamda tegishli atama, buyruqlarni bajara oladi; kompyuterda ishlash ko'nikmasi rivojlangan va berilgan dasturlash muhitida ishlay oladi; berilgan vazifani bajarib, natija olib biladi; kompyuterda ishlatiladigan tezkor tugmalar vazifasini hamda qo'llanilishini biladi; o'qituvchi tomonidan belgilangan vazifani dasturlash muhiti orqali mustaqil bajara oladi; dasturlash muhitini sozlash, qo'shimcha komponentalarni o'rnatish, shuningdek, ular imkoniyatlaridan foydalana oladi; dastur tuzishda mantiqiy fikrlay oladi; o'qituvchi tomonidan berilgan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llay oladi.

Tajriba – sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – oliy ta'lim muassasalari zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni masofaviy o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tajriba-sinov ishlari Buxoro davlat texnika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat texnika universitetining 575 nafar respondent-

talabalari ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlarining tasdiqlovchi, aniqlovchi bosqichida tajriba-sinov ishlari yakunlanib xulosalandi. Testlar, anketalar, so‘rovnomalar, test-anketalar namunalari, suhbatlar mavzulari ishlab chiqildi, tegishli miqdorda ko‘paytirildi, talabalarga tarqatildi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari loyihasi, o‘quv mashg‘ulotlari ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Jarayonda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish va kuzatishlar asosida nazorat va tajriba guruhlarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar berildi.


Tajriba-sinov jarayonida oliy o‘quv yurtlari zamonaviy ta‘lim muhitida talabalarni masofaviy o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilimni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

2-jadval.

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan barcha oliy ta‘lim muassasalari talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari umumiy natijalari

Oliy ta‘lim muassasalari	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	Tajriba guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%	Tajriba boshida talaba soni	%	Tajriba oxirida talaba soni	%
QarDTU TerDPI BuxDTU	Yuqori	67	22,9	103	35,2	76	26,9	79	28,0
	O‘rta	105	35,8	141	48,1	97	34,4	102	36,2
	Past	121	41,3	49	16,7	109	38,7	101	35,8
	Jami	293	100	293	100	282	100	282	100

Yuqorida barcha oliy ta‘lim muassasalari bo‘yicha 293 nafar talabalar qatnashgan tajriba guruhlarida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, shundan talabalarining yuqori va o‘rta o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 12,3 foizga oshganligini, past ko‘rsatkich esa 24,6 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin. Nazorat guruhlarida esa ushbu ko‘rsatkichlar deyarli o‘zgarmagan yoki juda kichik farq bilan o‘zgargan (5-rasm).



5-Rasm. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan barcha oliy ta‘lim muassasalari talabalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari umumiy natijalari diagrammasi

Yuqoridagi jadvallar asosida talabalarning tajriba va nazorat guruhidagi o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi N_1 gipoteza va unga zid bo'lgan N_0 gipotezani tanlaymiz.

Tajriba va nazorat guruhidagini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va talabalarlar sonini mos ravishda x_i, y_i lar orqali belgilab olamiz.

x_i – tajriba-sinov guruhiga mos keladigan baholar. $i = \overline{1,3}$

y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar.

\bar{x} va \bar{y} – tajriba va nazorat guruhlari uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar formulalari.

$$\bar{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} \quad (1)$$

Bu yerda: $x_i, y_i - 3, 4, 5$ qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

n, m – tajriba va nazorat guruhidagi talabalar soni.

n_i, m_i – mos baholarga nisbatan talabalar soni.

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik

koeffitsienti quyidagicha olindi: $\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}}$ (2)

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

